


Ichki ishlar organlarining

ma’muriy jazoni qo‘llash bo‘yicha vakolatlarining o‘ziga xos xususiyatlari



Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida Yangi O‘zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma’rifiy asoslari yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 60-farmoni bilan jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta’minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash maqsadida 2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlandi.

Ushbu muhim hujjat “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan barcha sohalarni yanada rivojlantirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar, maqsad va vazifalarni belgilab berdi. Jumladan, jamoat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklarning sabablarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish, ichki ishlar organlarini xalqning ishonchli himoyachisi sifatida professional tuzilmaga aylantirish hamda aholi bilan maqsadli ishlashga yo‘naltirishga oid maqsad va vazifalar qatorida 2021-yil 29-noyabrda Prezidentning “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 27-farmoni qabul qilindi. Unda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta’minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilganligi, jumladan, jamoat xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishidagi ishlarni “Xalq manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan hamkorligi yo‘lga qo‘yilganligi e’tirof etilishi bilan bir qatorda bajarilishi zarur bo‘lgan vazifalar ham belgilab berildi.



Hozirgi zamon mamlakatimiz ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonunchiligining davr talablariga qanchalik javob bera olishini o‘rganishni, ma’muriy javobgarlik normalarining qo‘llanish holatini baholashni hamda samaradorligini monitoring qilib borishni taqozo etmoqda.

Bugungi kunda ichki ishlar organlarining ma’muriy yurisdiksiyaviy faoliyatini amalga oshirishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar orasidagi o‘rni muhim va salmoqli ekanini alohi-

da ta’kidlash lozim. Jumladan, ichki ishlar organlarining ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni aniqlashi, ko‘rib chiqishi hamda aybdor shaxslarni ma’muriy javobgarlikka tortishi, chiqarilgan qarorlarni ijro etishi bilan huquq-tartibotni va jamoat xavfsizligini ta’minlashdek muhim vazifalar hal etiladi.

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 248-moddasida ichki ishlar organlarining ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi qanday ishlarni ko‘rib chiqishi hamda faqat ma’muriy jarima jazo chorasini qo‘llash vakolati belgilangan.

Bundan tashqari, ichki ishlar organlari Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 287-moddasiga nazarda tutilgan huquqbuzarliklar sodir etilgan taqdirda ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida ishlarning o‘z vaqtida va to‘g‘ri ko‘rib chiqilishini ta’minlash hamda ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlar yuzasidan chiqarilgan qarorlarni ijro etish maqsadida huquqbuzarlarni ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish vakolatiga egadirlar.

Ichki ishlar organlari xodimlari huquqni muhofaza qilish vazifasiga ko‘ra hududlarda sodir etilgan barcha huquqbuzarliklarni aniqlaydi. Buzilishi ma’muriy javobgarlikni keltirib chiqaradigan qoidalarga rioya etilishini tekshirish va (yoki) nazorat qilish qonunchilik bilan zimmasiga yuklatilgan ichki ishlar organlarining vakolatli mansabdor shaxslari ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi bayonnomani tuzadi. Dastlabki hujjatlarni rasmiylashtirib, bayonnoma va ish bo‘yicha ashyoviy dalillar bilan birga huquqbuzarlik sodir etilgan yoki aniqlangan paytdan boshlab bir sutkadan kechiktirmay taalluqlilik bo‘yicha ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish vakolatiga ega bo‘lgan organ (mansabdor shaxs)ga yuboradilar.

Ichki ishlar organlarining ma’muriy jazo choralarini qo‘llash bo‘yicha vakolatlarining o‘ziga xos xususiyatlari yana quyidagilarda namoyon bo‘ladi.

2016-yil 16-sentyabrdagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonunning 2-moddasida “Ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilishdan, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta’minlashdan, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasidan iborat” ekanligi belgilangan.

Mazkur vazifalarni samarali bajarish uchun ichki ishlar organlari faoliyatini o‘z vakolatlari doirasida quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirishlari belgilangan:

– fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

– jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash;

– huquqbuzarliklar profilaktikasi, ularning sabablarini aniqlash hamda bartaraf etish, huquqbuzarliklarni sodir etishga moyil shaxslarni aniqlash;

– yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash;

– pasport tizimi talablarining bajarilishini ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasidan chiqish va unga kirish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni, doimiy va vaqtincha yashash uchun ruxsatnomalarni berish hamda rasmiylashtirish, pasport tizimiga va O‘zbekiston hududida bo‘lish qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish;

– fuqaroviy va xizmat qurolining hamda uning o‘q-dorilarining, sanoat uchun mo‘ljallangan portlovchi materiallarning, shuningdek pirotexnika buyumlarining, giyohvandlik vositalarining, ular analoglarining, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo‘lishi sohasini nazorat qilish;

– ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish, ma’muriy jazolarni qo‘llash to‘g‘risidagi qarorlarni ijro etish.

Mazkur yo‘nalishlardan kelib chiqib, ushbu tarmoq va sohalarda sodir etiladigan ma’muriy huquqbuzarliklarni aniqlash, ko‘rib chiqish va jazo qo‘llashga vakolatlar quyidagicha taqsimlanganini e’tirof etish mumkin.

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 248-moddasida ichki ishlar organlari nomidan mazkur kodeksning 54 ta moddasida nazarda tutilgan ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqishga va ma’muriy jazo qo‘llashga quyidagilar haqli ekani qayd etilgan, ya’ni:

1) tumanlar, shaharlar, shaharlardagi tumanlar ichki ishlar bo‘limlarining (boshqarmalarining) boshliqlari yoki boshliq o‘rinbosarlari, shuningdek transportda xavfsizlikni ta’minlash boshqarmalarining (bo‘limlarining) boshliqlari – jami 21 ta moddada belgilangan ma’muriy huquqbuzarliklarni ko‘rib chiqish va faqat jarima jazo chorasini qo‘llashga;

2) metropolitenni muhofaza qilish bo‘yicha ichki ishlar bo‘limining boshlig‘i yoki boshlig‘i o‘rinbosarlari – jami 11 ta moddada belgilangan ma’muriy huquqbuzarliklarni ko‘rib chiqish va faqat jarima jazo chorasini qo‘llashga;

3) temiryo‘l vokzallari va aeroportlardagi bo‘linmalarning, ichki ishlar organlarining migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘limlarining (boshqarmalarining) boshliqlari va boshliq o‘rinbosarlari – 1 ta moddada (225-moddaning birinchi – beshinchi qismlarida) nazarda tutilgan ma’muriy huquqbuzarliklarni ko‘rib chiqish va faqat jarima jazo chorasini qo‘llashga;

4) ichki ishlar organlari tayanch punktlarining profilaktika katta inspektorlari va inspektorlari – jami 24 ta moddada belgilangan ma’muriy huquqbuzarliklarni ko‘rib chiqish va faqat jarima jazo chorasini qo‘llashga;

5) yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining (Bosh boshqarmasining) boshlig‘i, uning o‘rinbosarlari, yo‘l-patrul xizmatini hamda ma’muriy amaliyotni tashkil etish va muvofiqlashtirish bo‘limining boshlig‘i, muhim topshiriqlar bo‘yicha bosh inspektor, inspektor (ma’muriy amaliyot bo‘yicha), ma’muriy amaliyot bo‘linmasining (bo‘limining) boshlig‘i, ma’muriy huquqbuzarliklar materiallarini ko‘rib chiqish bo‘yicha bosh inspektor, katta inspektor (inspektor), yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limining (bo‘linmasining) boshlig‘i, davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmatining katta inspektori va yo‘l harakati xavfsizligi guruhining ma’muriy amaliyot bo‘yicha inspektori, ular yo‘qligida esa ichki ishlar bo‘limining boshlig‘i yoki uning o‘rinbosari – jami 23 ta moddada belgilangan ma’muriy huquqbuzarliklarni ko‘rib chiqish va faqat jarima jazo chorasini qo‘llashga vakolatlidirlar.

Ichki ishlar organlari xodimlari o‘z faoliyatida inson va jamiyat farovonligi yo‘lida fuqarolarning huquq va erkinliklarini, mulkni, davlat va jamoat tartibini, tabiiy muhitni muhofaza qilishni, ijtimoiy adolat va qonuniylikni ta’minlashni, ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarning o‘z vaqtida va obyektiv ko‘rib chiqilishini, shuningdek bunday huquqbuzarliklarning oldini olishni, yoshlarni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalashda ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritishda quyidagi vazifalarni amalga oshirishlari lozim:

– har bir ishning holatini o‘z vaqtida, har tomonlama, to‘liq va obyektiv ravishda aniqlab chiqish;

– ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni qonunchilikka muvofiq holda hal etish;

– ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha chiqarilgan qarorning ijrosini ta’minlash;

– ma’muriy huquqbuzarlikning sodir etilish sabablarini aniqlash;

– huquqbuzarliklarning oldini olish.

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonunchilik qonuniylik, fuqarolarning qonun oldida tengligi, demokratizm, insonparvarlik, odillik va ayb uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsiplariga asoslanadi. Shu bois ichki ishlar organlari xodimlari ma’muriy huquqbuzarlik uchun hech kimga qonunchilikda belgilangan asoslar va tartibdan boshqacha tarzda chora ko‘rishi mumkin emas.

Hojiakbar BAXRAMOV,
Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti o‘qituvchisi